

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI  
MINTAQAVIY BO'LIMI  
XORAZM MA'MUN AKADEMIYASI**

**XORAZM MA'MUN  
AKADEMIYASI  
AXBOROTNOMASI**

Axborotnomma OAK Rayosatining 2016-yil 29-dekabrdagi 223/4-son qarori bilan biologiya, qishloq xo'jaligi, tarix, iqtisodiyot, filologiya va arxitektura fanlari bo'yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan

**2024-6/4  
Xorazm Ma'mun akademiyasi axborotnomasi  
2006 yildan boshlab chop qilinadi**

**Xiva-2024**

**Bosh muharrir:**

Abdullayev Ikram Iskandarovich, b.f.d., prof.

**Bosh muharrir o‘rinbosari:**

Hasanov Shodlik Bekpo ‘latovich, k.f.n., k.i.x.

**Tahrir hayati:**

Abdullayev Ikram Iskandarovich, b.f.d., prof.  
Abdullayeva Muborak Maxmusovna, b.f.d., prof.  
Abduhalimov Bahrom Abduraximovich, t.f.d., prof.  
Agzamova Gulchexra Azizovna, t.f.d., prof.  
Aimbetov Nagmet Kalliyevich, i.f.d., akad.  
Ametov Yakub Idrisovich, d.b.n., prof.  
Babadjanov Xushnut, f.f.n., prof.  
Bobojonova Sayyora Xushnudovna, b.f.n., dos.  
Bekchanov Davron Jumanazarovich, k.f.d.  
Buriyev Xasan Chutbayevich, b.f.d., prof.  
Gandjayeva Lola Atanazarovna, b.f.d., k.i.x.  
Davletov Sanjar Rajabovich, tar.f.d.  
Durdijeva Gavhar Salayevna, arx.f.d.  
Ibragimov Baxtiyor To‘laganovich, k.f.d., akad.  
Izzatullayev Zuvayd, b.f.d., prof.  
Ismailov Is’haqjon Otabayevich, f.f.n., dos.  
Jumaniyozov Zoxid Otabayevich, f.f.n., dos.  
Jumanov Murat Arepbayevich, d.b.n., prof.  
Kadirova Shaxnoza Abduxalilovna, k.f.d., prof.  
Qalandarov Nazimxon Nazirovich, b.f.f.d., k.i.x.  
Karabayev Ikramjan Turayevich, q/x.f.d., prof.  
Karimov Ulug‘bek Temirbayevich, DSc  
Kurbanbayev Ilhom Jumanazarovich, b.f.d., prof.  
Kurbanova Saida Bekchanovna, f.f.n., dos.  
Qutliyev Uchqun Otoboyevich, f-m.f.d.  
Lamers Jon, q/x.f.d., prof.  
Maykl S. Enjel, b.f.d., prof.  
Maxmudov Raufjon Baxodirovich, f.f.d., k.i.x.  
Mirzayev Sirojiddin Zayniyevich, f-m.f.d., prof.  
Mirzayeva Gulnara Saidarifovna, b.f.d.

Pazilov Abduvayait, b.f.d., prof.  
Razzaqova Surayyo Razzoqovna, k.f.f.d., dos.  
Ramatov Bakmat Zaripovich, q/x.f.n., dos.  
Raximov Raxim Atajanovich, t.f.d., prof.  
Raximov Matnazar Shomurotovich, b.f.d., prof.  
Raximova Go‘zal Yuldashevna, f.f.f.d., dos.  
Ro‘zmetov Baxtiyar, i.f.d., prof.  
Ro‘zmetov Dilshod Ro‘zimboyevich, g.f.n., k.i.x.  
Sadullayev Azimboy, f-m.f.d., akad.  
Salayev San‘atbek Komilovich, i.f.d., prof.  
Saparbayeva Gulandam Masharipovna, f.f.f.d.  
Saparov Kalandar Abdullayevich, b.f.d., prof.  
Safarov Alisher Karimjanovich, b.f.d., dos.  
Sirojov Oybek Ochilovich, s.f.d., prof.  
Sobitov O‘lmasboy Tojaxmedovich, b.f.f.d., k.i.x.  
Sotipov Goyipnazar, q/x.f.d., prof.  
Tojibayev Komiljon Sharobiddinovich, b.f.d., akad.  
Xolliyev Askar Ergashevich, b.f.d., prof.  
Xolmatov Baxtiyor Rustamovich, b.f.d.  
Cho‘ponov Otanazar Otojonovich, f.f.d., dos.  
Shakarboyev Erkin Berdikulovich, b.f.d., prof.  
Ermatova Jamila Ismailovna, f.f.n., dos.  
Eshchanov Ruzumboy Abdullayevich, b.f.d., prof.  
O‘razboyev G‘ayrat O‘razaliyevich, f-m.f.d.  
O‘rozboyev Abdulla Durdiyevich, f.f.d.  
Hajiyeva Maqsuda Sultanovna, fal.f.d.  
Hasanov Shodlik Bekpo ‘latovich, k.f.n., k.i.x.  
Xudayberganova Durdonha Sidiqovna, f.f.d.  
Xudoyberganov Oybek Ikromovich, PhD, k.i.x.

Xorazm Ma’mun akademiyasi axborotnomasi: ilmiy jurnal.-№6/4 (115), Xorazm Ma’mun akademiyasi, 2024 y. – 475 b. – Bosma nashrning elektron varianti - <http://mamun.uz/uz/page/56>

ISSN 2091-573 X

Muassis: O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi mintaqaviy bo‘limi – Xorazm Ma’mun akademiyasi

**МУНДАРИЖА**  
**FILOLOGIYA FANLARI**

<b>Abdullayeva G.</b> Bolalar she'riyatida lirik qahramon ifodasi	7
<b>Abdullayeva G.N.</b> Vafo va xiyonat ziddiyati	9
<b>Abdullayeva P.U.</b> Ellipsis va substitutsiya hodisalari	12
<b>Abdurahmonova H.Yu., Nishonov P.P.</b> XIX asrda fransuz adabiyoti: qishloq turmush tarzi manzaralari va adabiy tendensiyalar	15
<b>Abdurakhmonova A.</b> Clarity counts: avoiding ambiguity through proper punctuation	17
<b>Abdusagatova F.</b> Radio eshittirishdagi yangi yo'naliishlar - davr talabi	20
<b>Absmadova M.I.</b> O'zbek va ingliz tillaridagi diplomatik terminlarning qiyosiy tahlili	23
<b>Ahmadaliyeva S.M., Shavkatova N.Z.</b> Pragmatonimlarda stilistik vositalarning qo'llanilishi	25
<b>Ahmadjonov M.A.</b> O'zbekiston bosma nashrlari va blogosferasida bank-moliya mavzusining talqini: xususiyatlar, ziddiyatlar va tendensiyalar	
<b>Ahmadzade O.</b> Functional styles of the Azerbaijani literary language of the XIX and early XX centuries in the researches of academician Tofiq Hajiyev	28
<b>Akhmedova S.H., Bafoyeva D.D.</b> Linguistic and cultural characteristics of english and uzbek proverbs	30
<b>Alimova K.M.</b> Postmodernizm davri kampus romanlari poetikasi	33
<b>Allaberganova R., Maxmudov R.</b> Qadimgi turkiy qavmlardagi ayrim shaxs nomlarining antropotsentrik tadqiqi	36
<b>Allayev Z.M.</b> Development of oneirosphere in traditional China	39
<b>Alqarov N.A.</b> Investigating Utopian and Dystopian Motifs within Germanic and Romantic Literary Traditions	42
<b>Amonov H.H., Raximova G.</b> Pahlavon Mahmud she'riyatida ilm-ma'rifat afzallikkleri va nodonlikning illatlari talqini	46
<b>Amonova Z.Q., To'rayeva M.T.</b> Alisher Navoiy lirkasida ma'shuqa uzvlarining badiiy talqinlari	49
<b>Amonov U.S., Saparova Sh.R.</b> Sadreddin Ayniy bolalar adabiyotining asoschisi	53
<b>Anvarova S.M.</b> Translating names of uzbek national clothes into english language	56
<b>Atadjanova S.A.</b> "Zubdatu-t-tavorix" asari she'riy shakllaridagi ma'naviy san'atlar	58
<b>Ataniyazova D. Sh.</b> Pragmatical characteristics of english and uzbek proverbs with food components	61
<b>Ataxanova V.R.</b> «Kitobi dadam qo'rqu» va Xorazm dostonlarining motivlar tizimi bo'yicha tahlili	64
<b>Avezova A.M.</b> Abdurahmon Jomiy va Alisher Navoiyning "Layli va Majnun" dostonlari qiyosiy adabiyotshunoslik aspektida	66
<b>Axmadaliev S.M.</b> Onomastik ko'lam va unda pragmatonimlarning o'rni	69
<b>Axtamova B.A.</b> S.Ayniuning "Doxunda" asarida nutqiy muloqotning sotsiopragmatik xususiyatlari	72
<b>Azamatova G.S.</b> Category of number in german language	75
<b>Babajanova L.J.</b> Bilingyal tezaurus yaratishda muammo va qiyinchiliklar. O'zbek va ingliz tillardagi fe'llarning valentlik munosabati masalalari	78
<b>Babayeva P.T.</b> Lexical-semantic features of onomastic units and points of development in fiction	81
<b>Bakhronova B.</b> The ways of improving note-taking skills in sequential translation	83
<b>Baxranova D.U., Qarshiyeva L.Z.</b> Fe'l so'z turkumiga oid so'zlarda polisimiyaning hosil bo'lishi	86
<b>Baymuratova X.A.</b> "Firdavs ul-iqbol" asarida qo'llangan ayrim kosmonimlar xususida	90
<b>Berdibekova H.M.</b> O'zbek tilidagi falsafiy terminlarni ta'limiy korpusda teglash masalasi	93
<b>Boboxonova S.X.</b> Nemis va o'zbek tillarida hozirgi -kelasni zamонни о'rgatishning metodikasi	96
<b>Botirbayeva Z., Bahodirova F.</b> Giperbola (mubolag'a san'ati)ning reklamadagi o'rni	98
<b>Choriyev U.</b> Jadid ma'rifatparvarlari yaratgan darsliklarning ilmiy ahamiyati	102
<b>Davlatnazarov D.R.</b> "Go'ro'g'lining tug'ilishi" dostonining versiyalaridagi antroponimlarning farqlanishi	104
<b>Djalilova D.Z.</b> "Javzo" romanida malikalar obrazi tahlili	107
<b>Do'smatov S.</b> Hamadoniy va Haririy maqomalarining o'ziga xosliklari	110
<b>Egamnazarov D.Sh.</b> Analyzing syntactic deviations through patterns, purposes, and perceptions	112
<b>Ergasheva X.</b> Qishloq xo'jaligiga oid atamalarning leksik-semantik xususiyatlari	115
<b>Eshqobilova O.</b> Ingliz va o'zbek tili so'z birikmalari tuzilishining konseptual-kognitiv tasviri va matn shakllantirish imkoniyatlari	118
<b>Fayzullayeva R.</b> Ilk yozma manbalardagi vatan talqinining Sirojiddin Sayyid ijodiga ta'siri	120

Kishining bilim olishi, salohiyatli fuqaro bo‘lib ulg‘ayishi, el-yurt manfaati uchun xizmat qilishi va ilm fan taraqqiyotiga o‘z hissasini qo‘sishi hamma zamonlarda dolzarb sanalgan masalalardan hisoblanadi.

Qaysiki, bir jamiyat ilm yo‘lidan borib, uning vositalarini to‘gri tanlagan holda taraqqiyotini qurgan bo‘lsa, yuksak cho‘qqilarga erishgan. Bunga kunsayin rivojlanayotgan yangi O‘zbekiston yaqqol misol bo‘la oladi.

#### FOYDALANGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI:

1. Pahlavon Mahmud Ruboilari. “O‘zbek adabiyoti”. – T.: “O‘qituvchi”, 2001.
2. Пахлавон Махмуд. Рубоийлар. – Тошкент: Ф.Гулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти. 1979. - 45 б.
3. Навоий асарлари лугати. –Т.: Ф.Гулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти. 1982. - 743 б.
4. Bobojonov D., Abdurasulov M. “Adabiyot farzandlari”, Xorazm Ma’mun akademiyasi nashroyoti, 2009.
5. Энциклопедия адабиёт ва санъати тоҷик. 2 ж. -Душанбе:
6. Сарредаксия илмии энциклопедияи шӯравии тоҷик. 534 б.
7. [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)

UO’K 82.091+821.512.133

### ALISHER NAVOIY LIRIKASIDA MA’SHUQA UZVLARINING BADIY TALQINLARI

*Z.Q.Amonova, dots., f.f.d., Buxoro davlat universiteti, Buxoro*

*M.T.To‘rayeva, talaba, Buxoro davlat universiteti, Buxoro*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada Alisher Navoiyning lirik merosi tarkibidagi ayrim g‘azallarda qo‘llangan somatik birliklar - tana a’zolarining badiiy ifodasi tahlil qilingan. Ijodkorning ma’shuqa portretini gavdalantirishdagi o‘ziga xos ifoda uslubi hamda noan’anaviy o‘xshatishlariga ahamiyat qaratilgan. Ayniqsa, somatik birliklar va arab harflarining shakliy ko‘rinishi bilan birlikda hosil qilingan badiiy tasviriy vositalar tahlilga tortilgan.

**Kalit so‘zlar:** zulf, ko‘z, yuz, xol, qosh, lab, Xizr, Iso, Masih, arab harflari, kitobat san’ati, tashbeh

**Аннотация.** В статье анализируется художественное выражение соматических единиц - частей тела, используемых в некоторых газелях лирического наследия Алишера Навои. Акцент сделан на уникальной выразительной манере художника и нестандартных сравнениях в изображении портрета возлюбленного. В частности, были проанализированы художественные изобразительные средства, созданные в единстве с соматическими единицами, и шаткий вид арабских букв.

**Ключевые слова:** Зульф, глаз, лицо, бровь, губа, Хыэр, Иисус, Христос, арабские буквы, книжное искусство, ташбех.

**Abstract.** This article analyzes the artistic expression of somatic units - body parts used in some ghazals of Alisher Navoi's lyrical heritage. Emphasis is placed on the artist's unique style of expression and unconventional similes in embodying the portrait of a lover. In particular, somatic units and artistic visual tools created in unity with the formal appearance of Arabic letters were analyzed.

**Key words:** zulf, eye, face, freckle, eyebrow, lip, Khizr, Jesus, Christ, Arabic letters, book art, tashbeh

**Kirish:** Badiiy adabiyotda tasvir vositasi sifatida somatizmlardan keng foydalilanadi. Mazkur atamadan dastlab olim F.O.Vakk foydalangan [1]. Shuningdek, rus ilmiy jamoatchiligidagi ham ayni masala e’tibordan chetda qolgan ems. Jumladan, olim Rayxshteyn fikriga ko‘ra, "Somatizmlar bu - odam yoki hayvon tana qismlarining asl ma’nosiga ega bo‘lgan otlardir" [2]. Ana shu nuqtayi nazardan qaraganda, o‘zbek mumtoz adabiyotida ham eng ko‘p murojaat qilingan masalalardan biridir. Ayniqsa, mumtoz lirikada somatizmlar ma’shuqa uzvlarini badiiy bo‘yoqlarda ifodalash uchun xizmat qiladi. Ma’lumki, mumtoz adabiyotda lirik qahramon, asosan, ishq dardiga mubtalo bo‘lgan oshiq bo‘lib, uning hijron iztiroblari, dard-u g‘amlari, yor go‘zalligi va uning vasliga erishmoq umidida boshdan kechirgan iztiroblari, kechinmalari qalamga olinadi. Ya’ni oshiqona g’azallarda ma’shuqa go‘zalligi tasviri yoki hijron iztiroblariga qolgan oshiqning ruhiy holati tasvirida somatizmlar badiiy san’atlarni yuzaga keltiruvchi vosita hisoblandi. Ayni jihatni ko’pgina

mumtoz shoirlar ijodida ko'rish mumkin. Xususan, Alisher Navoiy ijodida somatizmlar bilan bog'liq juda ko'p she'rlarni ko'rish mumkin.

**Tahlil va natijalar (Analysis and results).** Navoiyning quyida keltirilgan baytda ma'shuqaning yuzi va zulfi ta'rif etiladi. Navoiy inson yuzini ilohiyashtirib, uni Qur'onga, yuzi ustiga yoyilib tushgan zulflarini esa chilvirga tashbih qiladi. Ma'shuqaning husn-latofati va qop-qora zulflariga oshiq bog'lanib qoladi, shu nuqtayi nazardan ma'shuqaga "kofir desam tonma", deydi:

Yuzu zulfung chu din qasdi qilur, kofir desam tonma,

Demon yuz uzra zulfung, balki mus'haf uzra zunnoring [3].

Baytda somatizmlar tanosub va tashbehni hosil qilgan. XV asrning 1-yarmidan boshlab o'zbek mumtoz adabiyotida ma'shuqa yuzini Mus'haf – Qur'onga tashbeh qilish an'ana sifatida shakllandi. Navoiy ham ushbu an'anani davomchisi sifatida yor yuzi mus'haf – yuzidagi zulf esa mus'haf uzra zunnordir, deydi. Zulf g'ayridinlar zunnori –chilviriga tashbeh etilgan. Shoир navbatdagi baytda ham yor yuzi va uning ta'rifi bilan bog'liq badiiy ifodani keltiradi:

Kohiy yuz birla o'larmen, Isaviydam soqiyo,

Boda tut xurshid jomi kahrabo kirdoridin [3].

Baytda oshiqning ruhiy holati va uning ta'sirchan manzarasini yaratishda talmeh va nido san'atidan o'rinali foydalanilgan. Lirik qahramon soqiya murojaat qilib, bu foni yunyon tark etsa ham, ul ruxsorning yodi bilan ketishini ma'lum qiladi. Ya'ni sarg'aygan yuzlarim bilan xuddi Isodek bu dunyoni tark etaman, chunki uning ishq qalbimga tushdi, ana shuning uchun ham menga boda tut,- deb o'z arzini bayon etadi.

Mumtoz adabiyotimizda ma'shuqaning go'zallik uzvlarini ifodalashda somatizmlar bilan birgalikda arab harflarining shakili ko'rinishiga asoslangan kitobat san'ati ham keng qo'llanilgan. Jumladan, Alisher Navoiy ham g'azallarida arab harflarining shakli ko'rinishidan unumli foydalaniib, niroyatda go'zal tasvirlar yarata olgan. Masalan, navbatdagi baytda Ҷ – harfini zulfga va harfning orasidagi nuqta belgisini zulfnинг orasida joylashgan xolga o'xshatadi:

Zulfungda xol «jim» arosindag'i nuqtadek,

Yuzungda zulf «vard» yonindag'i «dol» ekin [3].

Zulf "Jim" harfi bilan birgalikda "Dol" harfiga ham tashbeh etiladiki, bunda ham shakli o'xshashlik inobatga olinadi. Bayting 2-misrasida esa yorining yuzi «vard» - atirgulga qiyoslanadi. Hayratlanarlisi shuki, shoир ajoyib so'z o'yinidan ham foydalangan. Ya'ni yuz – vard (atirgul) bo'lsa, yuzdag'i zulf "vard" yonidagi «dol» ekan, deyish bilan ham zulfni dol harfining shakliga qiyoslasa, ham "vard" so'zining «dol» bilan tugashiga ishora qilgan. Baytdagi zulf, yuz, xol – inson tana a'zolari umumiyligi ostida tanosubni yuzaga keltirgan.

Mumtoz she'rlarda yuz bilan bog'liq juda ko'p tashbehlar yaratilgan. Masalan, quyidagi baytda quyoshga o'xshatilgan:

Sujud etar quyosh ollinda uylakim hindu

Yuzung qoshinda quyosh loiloha illohu [3].

Baytda shoир hindularning quyoshga sajda qilishiga ishora etib, ma'shuqa yuzi- quyosh, shuning uchun unga hindu "sujud etar" deya e'tirof etadi. Shuningdek, "loiloha illohu" (Allohdan o'zga iloh yo'q) kalimasiga talmeh qilib, Allohning yagonligi – tawhid g'oyasiga urg'u beradi. Orifona g'azallarda quyosh va zarra Haq va tajalliga ishora sifatida zikr etiladi. Baytda ham ayni masala qalamga olingan.

Navbatdagi baytda ham bevosita quyosh va somatizmlardan esa yuz qalamga olinadi:

To ko'rubon yuzin quyosh qolg'ali ishtiyoqig'a

Goh boshig'a evrulur, goh tushar ayoqig'a [3].

Shoir ma'shuqa madhini davom yettirib, fikr ta'sirchanligiga mubolag'a san'atidan foydalinish orqali erishadi. Yorning husni shunchalik go'zalki, uni bir ko'rib qolgan quyoshning unga ishtiyoqi oshib, goh parichehraning boshiga, goh oyog'iga tomon tushadi. Bilamizki, ko'pgina g'azallarda yor yuzini quyoshga tashbeh etish an'ana tusiga kirib qolgan. Ushbu baytda esa, an'anadan chekingan holda shoир ma'shuqa jamolini quyoshdan ham go'zalroq ekanini e'tirof etib, quyosh unga maftun bo'lib goh boshiga, goh oyog'iga tomon evrulishini qayd etadi.

Aksariyat g'azallarda ma'shuqa portretini tasvirlashda ilohiy va muqaddas tushunchalardan ham foydalaniladi. Navoiyning quyidagi baytida ham ushbu tasvirlarni ko'rish mumkin:

Sunbulungdur uqdayi ra'su yuzung mohi tamom,

Orazing Firdavs qad to'biyu la'ling salsabil [3].

Shoir somatizmlar orqali badiiy tasvir yaratib, ma'shuqa ta'rifida ilohiy tushunchalardan mahorat bilan foydalangan. Bunda "istiora" bilan yor sochini sunbulga qiyoslasa, sochning holatini uqda (tugun) ekanligini qayd etib, bosh va yuzini oyga mengzaydi. Lirik qahramon uchun ma'shuqa orazi- jannat, qad-qomati jannatdag'i Tubi daraxti, labi esa jannatdag'i muqaddas buloqni eslatadi. Shoir ma'shuqaning har bir uzvini tashbih san'ati vositasida badiiy talqin qiladi. Jumladan, yuzini oyga hamda jannatga, qomatini tik o'suvchi tubi daraxtiga, lablarini hayot bag'ishlovchi muqaddas buloq suvlariga qiyosladi. Labni qizil qimmatbaho tosh –la'l deyishi "istiora" hisoblanadi. Qip- qizil la'ldek lablari jonlantiruvchi tiniq suv bo'lib, u oshiqqa hayot beradi. Manbalarda, labdag'i namlik obi hayot - ishq va muhabbat bulog'i, «lab» deganda esa insonga jon, hayot baxsh etuvchi muhabbat chashmasi tushuniladi [6].

Navoiy ma'shuqa tasvirining jozibali ifodasi uchun ko'z tasviriga ham murojaat etadi. Quyida keltirilgan parchada ko'zning jodu va sehrli sirlari ochiladi:

Ko'zungdur fitnavu afsun savodidin qaro nargis,

Yuzumdur mehnatu idbor dog'idi sarig' lola [3].

Mazkur baytda ma'shuqaning qaro ko'zlarini ta'riflanib, uning qaroligiga sabab esa, "fitnavu afsun" dir, deydi. Shoir yor ko'zining qaroligining sababini anglatish bilan cheklanmaydi, balki oshiq ruhiy holati tasvirini ham keltiradi. Bunda tashbeh san'ati imkoniyatidan unumli foydalanadi. Ya'ni ma'shuqa fitnakorligi va unga ko'ngil bergen oshiqning iztiroblardan alam chekkani tashqi qiyofasiga ham ta'sir ko'rsatgani bayon etiladi. Fitna-yu sohir bo'lgan yorning shahlo ko'zlar qop- qora, oshiq yuzi esa mehnat va baxtsizliklardan sariq lola kabitdir. Navoiy g'azallari tarkibida mahbuba jamolining go'zallik uzvlari qatorida qosh hamda zulf ta'rifi ham o'zgacha o'rinn egallaydi. Bu bilan bog'liq jihatlarni quyidagi misralarda ko'rish mumkin:

Vo'smasi qavsi quzah, g'ozasi gulgun shafaq,

Zulfa yuzi tunu kun, ko'rki, ne makkoradur [3].

Mahbubasingning yoydek qoshlariga o'sma qo'ygani, shafaqdek yuziga qizilrang upa-pardoz surgani, zulfi tun kabi qop-qora, yuzlari esa uning aksi - quyoshdek ekani ta'rif etiladi. Oshiq bu sohibjamolni ko'rib, husni - latofatiga maftun bo'ladi, xayolini band yetgan chiroyi uni asir qiladi. Shu bois uni «makkora» sifati bilan atashni joiz deb biladi.

Navoiy ma'shuqa go'zalligi ta'rifida arab harflarining shakliy ko'rinishidan ham yangicha qiyoslar yaratadi:

Tararda uhdaliq zulfin musalsal ayladi chinlar,

Girih «mim», ikki zulfi ikki «lom», iynak tarog' «sin»lar» [3].

Ma'shuqa zulfini tarashda hosil bo'lgan chiginlar ham zulf bilan bog'lanib ketadi, bu tugunlar Mim (ମ) harfini, ikki zulfi Lom - «ଲ» harfini, taroq esa xuddi ଶ Sin harfini eslatadi. Bu kabi tashbehtar fikr ta'sirchanligini ta'minlagan.

Quyidagi baytda ham shoir arab harflari orqali nihoyatda chiroyli ifodani hosil qiladi:

Nuqtayi xoling nedin shirin labing ustidadur,

Nuqta chun ostin bo'lur har qaydakim yozilsa «lab». [3]

Arab alifbosida "lom", "alif" va "ba" harflaridan "lab" so'zi kelib chiqadi (ଲ ) (ا ) Ba harfinining yozilishiga ahamiyat qaratsak, harf ostida nuqtasi bor. Ushbu harflar ham birlashtirib yozilganda, "ba" harfi "lom"dan keyin yoziladi. Mana shu holatni shoir ma'shuqaning shirin lablari ostida nuqtadek xoli joylashganligi tasviri bilan ifodalab beradi. Ma'shuqa qoshi ta'rifida arab harflaridan "Nun" qo'llanilgan o'rirlarni ham ko'rish mumkin:

Ko'zu qoshing biaynih nargiz boshinda «nun»

Zulfung ayog'ing ostida chun vard ayog'i «dol». [3]

Ko'z-u qoshlarining xuddi nargiz guli boshidagi «Nun» harfi kabitdir. ୨ ning shakliga ahamiyat qaratsak egri, kamonsimon tomoni qoshni eslatadi. Nega aynan "nargiz boshinda", degan haqli savol tug'ildi. Mumtoz adabiyotimizda ko'z nargizga tashbeh qilinadi, yoki aynan "istiora" orqali

to'g'ridan to'g'ri ko'z o'rnida nargiz ishlataladi. Navoiy mazkur an'anani davom ettirgan. Ikkinci misrasida ma'shuqaning zulflari uzunligidan oyog'igacha tushishi e'tirof etiladi va ayni zamonda zulfnинг shakli uchun arab harflaridan "dol" ni tanlaydi. Chunki mazkur harfning shakli ko'rinishi (ә) zulfga o'xshaydi. Ammo shoir shunchaki tashbeh bilan chegaralanib qolmay "vard ayog'i «dol» deya mazkur so'zning oxiri "dol" bilan tugashiga ishora qilib, chirolyi so'z o'yinini yaratadi. Nega aynan "vard"?! Chunki vard – bu atirgul, bu bilan shoir ma'shuqani bir jihatdan go'zal atirgulga o'xshatadi. Arab alifbosi harflari shaklidan unumli foydalanib, ma'shuqa uzvlarini tabiatdagi go'zal predmetlar bilan o'xhash tomonlarini topa olgani Navoiyning sinchkov nigohi va buyuk iste'dodidan yana bir karra nishon beradi.

Alisher Navoiy quyidagi baytda ma'shuqaning zulflarini «husni ta'lil» san'ati vositasida yangicha ifoda kashf etadi:

Zulfi sarkashlik qilur har necha ul oy cheksa qad,

Soya garchi qisqarur doim biyik bo'lg'ach quyosh. [3]

Ushbu parchada ham ma'shuqaning go'zallik uzvlari bitilgan bo'lsa-da, mazkur tasvir mazmun va ifoda e'tibori bilan originaldir. Oy «istiora» si orqali yor – ma'shuqa nazarda tutiladi. Baytda aytilishicha, ul pari har safar qaddini ko'targanida zulflari itoatsizlik qilib, yuzini to'sib qo'yarmish. Ikkinci misrada shoir ayni holatga hayotiy dalil keltiradi. Chunki quyosh ham qancha balandlikka ko'tarilgani sayin soyasi qisqarib qoladi. Shoир ushbu hayotiy misol bilan o'z fikrini dalillaydi. Mazkur ifodani tamsil san'atining go'zal namunasi deyish mumkin.

Ko'pgina mumtoz g'azallarda yorning labi la'l (qimmatbaho qizil tosh)ga tashbeh etiladi. Navoiyda ham ayni tashbeh bilan birgalikda o'ziga xos o'xshatishlarni ham ko'rish mumkin:

Ul labi unnobgun ko'nglumda ekkan tuxmi mehr

Ko'nglum ichra yoshurun durdonadek unnob aro. [4]

Unnob - jilonjiyda. Jilonjiyda - xurmoning bir turi bo'lib, rangi qizg'ish tusda bo'ladi. Bu meva rangi qizilligi bois labga o'xshatilgan. Ma'shuqaning jilonjiyda misol qip-qizil lablari oshiq ko'ngliga mehr urug'larini ekadi. Qolaversa, oshiq qalbida unnobdeк lablar orzusi durdonadek yashirinadi. Baytdagi «tuxmi mehr» esa istiorani yuzaga keltiradi.

Ma'lumki, mumtoz adabiyotda mahbuba lablarining kichkinaligi o'ziga xos go'zallik ifodasi sifatida ta'riflanadi. Navoiy yozadi:

Nukta der holatda tor og'zingni ko'rguzgan labing,

Go'yiyo zanbur neshidin teshilgan bol erur [3]

Shoir tamsil san'atiga asoslanib, go'zal badiiy tasvirni yaratadi. Labingning torgina ekanligini ko'rgan kishilar nuqta deb atashadi, bu go'yoki arining nishidan teshilgan bolga ham o'xshaydi. E'tibor qaratsak, labning ikki sifati: 1) nuktadek kichikligi; 2) boldek shirinligiga ahamiyat berilyapti.

Mumtoz adabiyotda «o'likni tirgizish» ifodasi hazrati Iso alayhissalomning mo'jizalariga asoslanadi. Qolaversa, ma'shuqa ham Iso nafasli deya ta'riflanadi. Yoxud ma'shuqaning la'l-u labidagi ter ham hayot suvidir.

Mumtoz adabiyotda Xizr alayhissalom hayot suvini ichib, abadiy hayot topgan qahramondir. Navbatdagi baytda bu haqiqat - lablaringdagi qatra-qatra ter Xizr ichgan suv bilan do'st tutinishdi,- tarzida ma'shuqa lablarining o'lik dillarga hayot bo'lishi bayon etiladi:

La'li labingda ter bo'lub obi hayot qatrasi,

Yoki Xizr suyi labing qatra bo'lub hubob anga [3].

1) La'li lab- qizil lab. 2) Oriflar tilida kalom, so'z (Fahrudin Iroqiy) [6]. Demak, la'li lab deganda, so'zning mohiyatidan, ma'shuqa so'zi, kalomi anglashiladi. 3) La'li labning yana bir ma'nosi jon bag'ishlovchi, tiriltiruvchi nafas. Alvon lablardagi ter - bu hayot baxsh etuvchi qatralardir. Alisher Navoiy abadiy hayotga erishgan Xizr ichgan suvlar u qatralar bilan do'st tutindimikan,- deb labda ko'ringan terning majoziy sharhlarini bayon yetadi.

Har labing o'lganni tirguzmakda, jono, jon erur,

Bu jihatdin bir-birisini birla jonajon erur [3].

Ma'shuqaning har labi o'likni tiriltirishda bir jondir. Bu jihatdan ikki labi bir-biri bilan jonajondir. «Jon» va «jonon» istilohlarining irfoniy ma'nolariga ko'ra, lab deganda jon, jon deganda

jonon tushunchalari ergashib keladi. «Jono» «jon» va «jonajon» so‘zлari ishtiqoqni hosil qilgan. Baytda irfoniy ma’no ifodalab kelgan jononning jon ato etishi ham, ilohiy kalomlar ham, ma’shuqa so‘zлari ham insonga ruh bag‘ishlaydi, o‘lik dillarga hayot beradi, chorasizga imkon yaratadi. Bu kabi ma’nolar tasavvuf adabiyotining ilohiy haqiqatlaridir.

Mumtoz she’riyatda ma’shuqaning jon ato etuvchi lablari Iso payg‘ambar va u kishining nafaslari bilan qiyos yetiladi. «Iso nafas», «Isiyi jon», «Masih», «Masihanfos» sifatlarining qo’llanishi ham shunga ishora bo‘lib keladi:

Ul Masih anfosi jonbaxshu labi hayvon suyi,  
Olloh-olloh, necha jonio notavon bo‘lg‘usidur? [3]

«Ul Masihning nafasi, jonbaxsh lablari hayot suvidir, Olloh- olloh, yana mening jonio nechun notavon bo‘ladi?...»

Iso payg‘ambarning o‘z nafaslari bilan o‘likni tiriltira olish xislatlari Qur’oni Karimda ham zikr yetiladi. “ Iso men sizlarga yaratgan egamizdan oyat –mo‘jiza keltirdim; loydan qush timsolini yasab unga puflasam, u Allohning izni bilan jon kiradi, Allohning izni bilan ko‘r va pesni tuzata olaman, va o‘liklarni tiriltiraman, yeyayotgan va zaxirada saqlayotgan narsalariningizni ham aytib bera olaman, ishonsangiz ana shular payg‘ambarligim uchun yetarli dalildir [8].

**Xulosa va takliflar.** Xulosa qilib aytish mumkinki, mumtoz she’riyatda, ayniqsa, Navoiy lirkasida mahbuba go‘zalligini ulug‘lash asnosida haqiqiy mohiyatga - Parvardigorga oshiq bo‘lish, uning go‘zalliklaridan bahramand bo‘lish g‘oyalari satrlar mag‘ziga singdirib yuboriladi. Shu bois go‘zal inson va uning turli uzvlariga mahliyo bo‘lib qolish orqali Yaratganning fayz-u tarovati, ilohiy qudrati kashf etilib boriladi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Mavluda I.G. Somatik leksikaning xususiyatlari. Volume 2 | issue 6 | 2021 issn: 2181-1601.-bb. -2
2. Rayxshteyn A.D. Sopostavitelniy analiz nemetskoy i russkoy frazeologii. - M: Vbisschaya shkola, 1980. - B. 5.
3. Alisher Navoiy. Mukammalar asarlar to‘plami. XX jildlik. 1-jild. Badoye ul -bidoya. -Toshkent: Fan, 1987. - 688 b.
4. Alisher Navoiy. Mukammalar asarlar to‘plami. XX jildlik. 3-jild. G’aroyib us - sig‘ar. -Toshkent: Fan, 1988. - 575 b.
5. Navoiy asarlari lug‘ati. Tuzuvchilar: P.Shamsiyev va S. Ibrohimov. Toshkent: G’.G’ulom nomidagi adabiyot va san‘at nashriyoti, 1973.– 784 b.
6. Navoiy g‘azaliyoti talqinlari. «G’aroyib us-sig‘ar». Jonbaxsh lab haqiqati, 73-74-betlar.
7. Navoiy g‘azaliyoti talqinlari. «G’aroyib us- sig‘ar». Tirkizish mo‘jizalarining asoslari, 77-79-betlar.
8. Qur’oni Karim oyatlari mazmun- ma’nosining o‘zbekcha izohli tarjimasi. Ikkinchchi nashr. Tarjimonlar: Azizxo‘ja Inoyatov, G‘ani Zikrillayev. – Toshkent: “Hilol – Nashr”, 2022. Oli Imron surasi, 49- oyat - 56-bet.
9. Amonova Z., Axrorova Z. “Nasoyim ul muhabbat” da Imom G ‘azolliy talqini. //Alisher Navo‘i and 21 st century. – T. 1. – №. 1.
10. Amonova Z., To‘rayeva M. Alisher Navoiy she’riyatida inson ta’na a’zolarining qo’llanishi //Konferensiyalar Conferences. – 2024. – T. 1. – №. 5. – C. 79-83.

UO’K 82-053.2(075)

#### SADRIDDIN AYNIY BOLALAR ADABIYOTINING ASOSCHISI

*U.S.Amonov, dots., PhD, Buxoro Davlat Pedagogika Instituti, Buxoro*

*Sh.R.Saparova, tayanch doktorant, Buxoro Davlat Universiteti, Buxoro*

**Annotatsiya.** Bu maqolada Sadriddin Ayniyning “Eski maktab” asari yoritiladi. Asar avtobiografik mazmundagi asar bo‘lib, ustoz Ayniyning bolalik damlarini, o‘qigan maktablarini hikoya qiladi.

**Kalit so‘zlar:** Prezidentimizning xalqaro konferensiyadagi nutqi, jadid ma’rifatparvarlarimizning darsliklari, Sadriddin Ayniyning “Eski maktab” avtobiografik asari.

**Аннотация.** В данной статье рассматривается произведение Садриддина Айни “Eski maktab” (Старая школа). Произведение автобиографично и рассказывает о детстве учителя Айни и школах, которые он посещал.

**Ключевые слова:** выступление нашего Президента на международной конференции, учебники наших современных просветителей, автобиографическое произведение Садриддина Айни “Eski maktab” (Старая школа).